SINXRON TARJIMA VA UNING TARIXI

Turajonova Gulnoza Sardorbek qizi
Andijon Davlat Chet tillari Instituti 401- guruh talabasi
Supervisor: PhD ***Egamberdiyeva Iroda***

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinxron tarjima va uning tarixda rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritiladi. Tarjima sohasidagi eng murakkab va ma'suliyatli hisoblangan sinxron tarjima tarjimonning yuqori darajadagi til bilimi uni erkin va samarali qo'llay olishi va shu bilan bir qatorda madaniy saviyasi va tezkor eshitish , fikrlash qobiliyatlarini talab qiladi. Maqolada ushbu tarjima turining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy texnalogiyalar bilan moslashuv jarayonlarini shuningdek real hayotiy misollar va tahlilarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar:sinxron tarjima, tarjima, tarjimon kabinasi, konferensiya, tarjima texnologiyasi, nutqning bir paytda qo'llanilishi, og'zaki tarjima , tarjimon.

Tarjima tarixi insoniyat rivojlanishi asosan turli davlatlar va millatlar o'rtasida madaniy, iqtisodiy, va shuningdek siyosiy aloqalarni o'rnatish , saqlab qolish va rivojlantirishda eng muhim vazifani bajaradi. Ayniqsa og'zaki tarjima turlari ichida ketma-ket yani sinxron tarjima eng murakkab, ko'p bilim, tezkor fikrlash va eshitish qobilaytlarini talab qiladigan, ammo eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi.

Sinxron tarjima rivojlanishi bevosita XX asr boshlarida rivojlana boshlagan buning asosiy sababi shubhasiz dunyoda ro'y berayotgan siyosiy o'zgarishlar,madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Sinxron tarjima asosan konferensiyalar, rasmiy uchrashuvlar, diplomatik aloqalar va yig'ilishlarda keng miqyosda qo'llaniladi. U bir paytning o'zida nutqni tarijima qilishni talab qilganligi tufayli ham sinxron tarjimondan yuqori darajadagi eshitish malakasi va tushunish qobiliyati talab etiladi.

Sinxron tarjimaning ta'rifi va mohiyati. Sinxron tarjima 1920-1930 yillarda dastlab ishlatilgan boshlagan va BU o'sha paytda ham murakkab jarayon bo'lgan.Ammo o'sha davrda tarjimonlar asosan ketma-ket tarjima Bilan shug'ullanishgan va bu ommalashgan tarjima turi hisoblangan.Sinxron tarjimaning ilk bor paydo bo'lishi ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga to'g'ri keladi.Sababi oddiy chunki bu davrdan so'ng bugun dunyo har tomonlama qiyin ahvolda bo'lgan va birgina munizaralar albatta tarjimonlar yordamidagina amalga oshirilishi aniq edi.

Sinxron tarjima- nutqni tinglayotgan bir paytda uni boshqa bir tilga og'zaki tarjima qilish jarayoni hisoblanadi va bu jarayon bir paytda amalga oshiriladi. Bu tarjima jarayonida tarjimon asosan maxsus kabinada o'tiradi, eshitish vositalari orqali notiqning nutqini eshitadi va shu bir paytning o'zida tarjimani boshqa bir tilga amalga

oshiradi va uni mikrafon orqali tinglovchiga yetkazib beradi. Eshituvchilar esa bu tarjimani ham maxsus quloqchinlar orqali ayni bir paytning o'zida tinglaydilar.

Ushbu davrga qadar faqatgina ketma -ket tarjima shakli mavjud bo'lib undan keng miqyosda foydalanishgan. Ikkinchi jahon urushi Nurnberg sudlarida esa sinxron tarjima ilk bora 1945 - yilda keng qo'llanilgan. Ingliz, nemis, rus, fransuz tillaridagi tarjimalar sinxron shaklida amalga oshirilgan. Ilk bora ishlab chiqarilgan sinxron tarjima vositalari ham aynan shu paytdan boshlab qo'llanilgan .

Texnologiyaning rivojlanishi bilan bir qatorda sinxron tarjima ham asta sekinlik bilan osonlasha boshladi. Bugungi kunda ko'plab xalqaro tashkilotlar jumladan BMT, YUNESKO, Yevropa ittifoqi, va boshqa bir qancha joylarda sinxron tarjima asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Tarjimaning ishi samarali va tinglovchi uchun qulay bo'lishi uchun bir qancha texnik vositalar talab qilinadi misol uchun , tarjimon kabinasi, eshitish vositalari, signal uzatuvchi va kuchaytirivchi apparatlar. Shuningdek bu tarjimada tarjimonlar 20-30 daqiqa davomida ishlashadi va 2 tarjimon doimiy almashinib turadi. Sababi bu jarayon jud katta aqliy va ruhiy kuchni talab qiladi. Sinxron tarjimaning afzalliklari vaqt tejaladi, nutq bilan bir paytda tarjima qilinganligi sababli, xalqaro forum, uchrashuv, kanfernsiyalarda ko'plab qulayliklarni yaratadi. Ko'p tillikni ta'minlab beradi. Murakkab jihatlari esa yuqori darajadagi charchoq, stress, aqliy mehnatni talab qiladi, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan madaniy va ba'zan terminlar bilan bog'liq tushunmovchilaklar.

Misol qilib oladigan bo'lsak BMT yig'ilishlarda bir vaqting o'zida 6 ta tilda sinxron tarjima amalga oshiriladi. Har bir til uchun eng kamida 2 ta tarjimon kerak bo'ladi. Sport tadbirlarida ham sinxron keng qo'llaniladi, jahon chempionati bo'lgan FIFA da ingliz, ispan, fransuz tillarida sinxron tarjima amalga oshiriladi.Turli davlatlar prezidentlari uchrashuvlari paytida ham sinxron tarjimadan keng qo'llaniladi. Sababi ushbu uchrashuvlar davomida tarjimonlar nutqni to'liq tushunish va zudlik bilan ikkinchi tilga tarjima qilish, sinxron tarjimaning yuqori ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi.

Sinxron tarjima zamonaviy musiqaning eng yuksak shakli bo'lib, xalqaro aloqalar, diplomatiya, ilmiy hamkorlik va biznes sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimonlardan esa bu sohada ishlash uchun nafaqat mukammal darajadagi til bilimi, madaniy tafakkur , yuqori tushunish va tez fikrlash, yuqori darajadagi diqqat e'tibor va stressga bardoshli bo'lish talab qilinadi. Texnolagik rivojlanishlar oshib borayotganiga qaramay sinxron tarjimaning inson tarjimonning o'rni muhimligich saqlanib qolmoqda.

Shuningdek bugungi kunda sinxron tarjima qilish va unga ko'mak beruvchi barcha jihozlari yanada ko'paydi va rivojlandi.Sinxron tarjimonlar uchun yaratilgan bu imkoniyatlar esa bevosita ularga katta ko'mak bermoqda.Sinxron tarjima qiyin jarayon bo'lishi bilan bir qatorda har bir davrda o'z qadrini yo'qotmaydigan eng muhim va tarjimonga katta imkoniyatlar yaratib beradigan kasblardan biri bo'lib saqlanib

qoladi.Bu tarjima usuli har doim turli millat va xalq vakillari o'rtasidagi til to'siqlarni bartaraf etadi,tafovutlarni to'g'ri va mos yo'l bilan hal qiladi,madaniy tenglikni esa saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Jones, R. (2002). Conference Interpreting Explained. Routledge.
Pöchhacker, F. (2004). Introducing Interpreting Studies. Routledge.
Gile, D. (1995). Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. John Benjamins Publishing.
Savory, T. (1968). The Art of Translation. Jonathan Cape.
Saidova, M. (2021). Tarjimashunoslik asoslari. Toshkent: TDShI nashriyoti.
Nurnberg Trials Archive. (1945). Historical Records and Interpretation Technologies.